



FARG'ONA VILOYATI FARG'ONA TUMANI HOKIMINING FARMOYISHI

2025-yil 29-aprel

66-11-163-F/25

Farg'ona tumani hokimligi

Farg'ona viloyati hokimining 2025-yil 15-mart kungi “Farg'ona viloyatida isitish mavsumini to'xtatish to'g'risida”gi 111-11-0-F/25-sonli farmoyishi ijrosi haqida

Farg'ona viloyatida yoqilg'i-energetika resurslaridan oqilona foydalanish, qolaversa Farg'ona gidrometeorologiya markazining havo haroratini 2025-yil mart oyining oxirgi o'n kunligida +8S dan yuqori bo'lishi kutilayotganligiga oid 2025-yil 13-mart kunidagi 68-son aloqa xati, shuningdek, “Hududgaz Farg'ona” gaz ta'minoti filialining qishki mavsumni joriy yilning 15-mart kunidan tugatish yuzasidan 2025-yil 14-mart kunidagi 40-01-51/1397-son xatiga muvofiq, 2024-2025-yillar kuz-qish davrida isitish mavsumini tugatish maqsadida qabul qilgan Farg'ona viloyati hokimining 2025-yil 15-mart kungi 111-11-0-F/25-sonli farmoyishi ijrosini ta'minlash maqsadida,

1.Farg'ona viloyati hokimining 2025-yil 15-mart kungi “Farg'ona viloyatida isitish mavsumini to'xtatish to'g'risida”gi 111-11-0-F/25-sonli farmoyishi ijro uchun qabul qilinsin.

2.Farg'ona tumanidagi xalq xo'jaligi korxonalari, turar-joy binolari, korxonalar, tashkilotlar, ijtimoiy va barcha turdagi muassasalarda 2024-2025-yillar kuz-qish davri uchun isitish mavsumi 2025-yil 15-mart kunidan tugatilsin.

3.Tuman hokimining o'rinbosari M.Qodirxonov, tuman gaz bo'limi (B.Umarov), tuman elektr ta'minoti korxonasi (M.To'xtasinov), qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bo'limi (X.Mirzayev)ga:

2024-2025-yillar kuz-qish davrida isitish mavsumi tugatilganligi munosabati bilan tuman korxonalarini elektr energiya va tabiiy gaz bilan belgilangan parametrlarda ta'minlash choralari ko'rish vazifasi topshirilsin.

4.Tuman elektr ta'minoti korxonasi (M.To'xtasinov), tuman gaz bo'limi (B.Umarov)ga:

2024-2025-yillar kuz-qish davrida isitish mavsumi tugatilganligi sababli iste'molchilarga belgilangan tartibda elektr energiyasi va tabiiy gaz yetkazib berilishini nazorat qilish;

tarmoqlarda noqonuniy foydalanuvchilarni aniqlash va ularga nisbatan belgilangan tartibda keskin choralar ko‘rish vazifalari belgilab qo‘yilsin.

5.Mazkur farmoyishning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari M.Qodirxonov zimmasiga yuklansin.

**Farg‘ona tuman
hokimi**



**INOMOV
XAMIDULLO.TADJIYEVICH**